



**Илмий – амалий конференция  
материаллари**

**ИЛМ - ФАН  
ВА  
ИННОВАЦИЯ**

**Қ а р ш и**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ИЛМ-ФАН ВА ИННОВАЦИЯ**

**Илмий-амалий конференция  
материаллари**

Қарши  
“Қарши давлат университети” нашриёти  
2018

қишлоқ хўжалиги учун қулай ва кенг жой эканлиги, аммо аҳолиси камбағаллиги қайд этилиб, "...иқлими мулойим, замини дуруст, сувлари (овқатни тез) хазм қилдиради, бу ерда отлар боқилади, газлама, гилам, шолча тайёрланади. Бу вилоятнинг пайтахти Чағониён шаҳридир, тоғ этагида бино бўлибдир. Оқар сувлари бор. Иқлими яхши, аммо мардуми дарвишдир", - деб маълумот келтириб ўтилади<sup>10</sup>.

Хуллас манбаларга кўра, илк ва ривожланган ўрта асрлардан то мўғуллар босқинигача бўлган даврида Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларидан ҳисобланган. Термиз ва Чағониённинг тарихи, тарихий географиясида мураккаб жараёнлар кўзга ташланади. Бу тарихий жараёнларни теран ўрганиш орқали Ватанимиз йўлини ва кечмишини кўпгина долзарб масалаларига аниқ жавоб топиш мумкин.

## **MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON- QOZOG'ISTON ALOQALARI VA UNING YANGI BOSQICHI**

*QDU magistrant:i Axmadova N.*

*Ilmiy rahbar: t.f.n. Hasanov A.*

1991 yil 31 avgust - O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining rasmiy e'lon qilingan kun – davlatimizning xalqaro hamjamiyatga keng ko'lamli va dinamik integratsiyasi boshlangan sana sifatida tarixda qoldi.

1992-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida birinchi bor xalqaro hamjamiyatning teng huquqli subyekti sifatida BMT a'ziligiga qabul qilindi. Bu tarixiy voqea O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatdan munosib o'rin olishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, Tojikiston va Afg'oniston mojarolari, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol

<sup>10</sup> Хасанов Х. Сайёҳ олимлар. Т., Б. 44.

muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rtaga qo'ydi.<sup>11</sup>

1993-yilning yanvarida O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari Hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Buni mintaqaxalqlari zo'r mamnuniyat bilan qarshi oldilar va qo'llab-quvvatladilar. 1993-yilning iyul oyida Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasida 1994-2000-yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida bitim imzolandi. 1994-yilning yanvarida esa yagona iqtisodiy hududni barpo qilish to'g'risidagi shartnoma ham imzolandi.

1994-yili O'zbekistonda Qozog'iston Respublikasi Kunlari o'tkazildi va unda O'zbekiston - Qozog'iston Markazini tashkil qilish xususida kelishib olindi. Tenglik asosida axborot va tahririyat materiallari almashish yo'lga qo'yildi. Xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ham O'zbekiston - Qozog'iston aloqalari yanada kengaya bordi. Xususan, madaniy aloqalar an'anaviy tus oldi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida qozoq adabiyoti Kengashi, Jizzax viloyatida esa «Kok-tem» qozoq teatr studiyasi faoliyati yo'lga qo'yildi.<sup>12</sup>

2002-yilning 9-sentabrida "O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegaralarining alohida uchastkalari to'g'risida bitim" imzolandi. Keyingi yillarda ham O'zbekiston - Qozog'istonning do'stona munosabatlari rivojlanib bordi.

Mamlakatimiz hamkorligi 1998-yilda imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida Abadiy do'stlik to'g'risidagi hamda 2013-yilda imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomalar va boshqa qator hujjatlar asosida taraqqiy etmoqda. O'zbekiston va Qozog'iston

<sup>11</sup> N.Jo'rayev, T.Fayzullayev "Mustaqil O'zbekiston tarixi" 3-kitob. Toshkent "Sharq" nashriyoti 2000-yil.501-bet.

<sup>12</sup> O'zR Prezidenti devoni nashri. Xabarnoma, 2-son, 1995-yil, 12-bet.

xalqaro siyosiy maydonda, mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar bo'yicha o'xshash yoki yaqin qarashlarga ega. Mamlakatimiz BMT, SHHT, MDH kabi xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki davomida bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

2017-yil 22-martdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'iston Respublikasiga qilgan davlat tashrifi Qozog'iston- O'zbekiston aloqalarini jadal rivojlantirish va tubdan kengaytirish borasidagi o'zaro xayrli va qat'iy intilishimizdan dalolat berdi hamda ularni yangi amaliy mazmun – mohiyat bilan boyitdi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning qozoq millatiga mansub 600 dan ziyod fuqarosi yuksak davlat mukofoti va unvonlariga sazovor bo'lgani ham ularning mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, xalqimiz orasida hurmat qozonib, keng e'tirof etib kelinayotganining tasdig'idir.<sup>13</sup>

Zero, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev "O'zbekiston hamisha Qozog'istonning ishonchli sherigi va do'sti bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Biz Qozog'iston erishayotgan muvaffaqiyatlarni O'zbekistonning yutuqlari, deb bilamiz deb ta'kidlagani bejizga emas.<sup>14</sup>

2017-yil 8-9 iyunda kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashida ishtirok etishi, ushbu kengash yig'ilishida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o'z nutqida 4 ta muhim vazifalarni o'rta tashladi.

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev 2017-yil 16-17-sentabr kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ldi. Bu uchrashuvda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi, shuningdek, dolzarb

<sup>13</sup> Sh. Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" T. "O'zbekiston"- 2017-yil, 379-bet.

<sup>14</sup> Sh. Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" T. "O'zbekiston"- 2017-yil, 378-bet.

mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashilindi va Toshkent shahrida ikki mamlakat Prezidentlarining Qo'shma bayonoti, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ko'p qirrali do'stona munosabatlarni izchil rivojlantirishga qaratilgan ko'plab hujjatlar imzolandi.

2017-yil 31-oktabr kuni Toshkent shahridagi Xalqaro hamkorlik markazida "O'zbekiston - Qozog'iston: diplomatik munosabatlar o'rnatilganligining 25 yilligi" mavzuida xalqaro anjuman ham tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning taklifiga binoan 2018-yil 15-mart kuni amaliy tashrif bilan Ostona shahrida bo'ldi. Tashrif doirasida O'zbekiston delegatsiyasi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining keng ko'lamli kun tartibiga ega birinchi maslahat uchrashuvida ishtirok etdi. Ushbu uchrashuvni o'tkazish taklifi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil sentabr oyida o'tgan 72-sessiyasida ilgari surilgan hamda 2017-yilda Samarqand shahrida bo'lgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada yaxlit dastur darajasigacha rivojlantirilgan edi.

Ushbu tarixiy uchrashuvda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagi asosiy vazifalarni hal etishni taklif etdi:

Birinchidan, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash sohasida samarali mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish uchun yangi zaxira va amaliy mexanizmlarni izlash;

Ikkinchidan, savdo-iqtisodiy, innovatsiya, investitsiya, transport-kommunikatsiya, bank-moliya, suv-energetika va madaniy -gumanitar sohalardagi sheriklik bo'yicha aniq dasturlar –"yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish;

Uchinchidan, eng dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar bo'yicha keng fikr almashish, ular bo'yicha umumiy pozitsiyani kelishib olish hamda uni keyin BMT, MDH, SHHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ilgari surishni taklif etdi.<sup>15</sup>

<sup>15</sup> "Xalq so'zi" gazetasi 2018-yil 16-mart.

Joriy yilning 15-mart kuni Markaziy Osiyo mamlakatlari — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlat rahbarlarining ishchi uchrashuvi ham bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ikki davlatning tarixiy o'tmishi haqida so'zlab shunday degan edi: "Buyuk shoir va mutafakkir Abayning quyidagi umrboqiy so'zlari bugungi intilishlarimiz bilan hamohang ekani bilan tahsinga sazovordir: "Ezgulik, rahmdillik, o'zingga ravo ko'rganni boshqalarga ham ravo ko'rish — mana, haqiqiy qalb qanday bo'lishi kerak. Chinakam sheryurak, qozoqcha aytganda, "jurekli" odamlar shunday bo'ladi"<sup>16</sup>

2018-yil 21-martda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev O'zbekiston xalqini Navro'z bilan tabriklash maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyurdi. Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev tashabbusi bilan O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakatlarimiz vazirlik va idoralari, hududlari o'rtasidagi aloqalar faollashdi. Transport yo'laklari ochilib, temiryo'l va avtobus qatnovlari yo'lga qo'yildi.<sup>17</sup>

O'zbekiston va Qozog'iston aloqalari bugungi kunda yangi rivojlanish bosqichga kirdi. Qozog'iston O'zbekiston uchun ishonchli sherik sifatida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish yo'lida qator tashabbuslar ko'rsatmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy sohalardagi hamkorlik ham rivojlanib bormoqda. O'zbekiston va Qozog'iston aloqalarining rivojlanishini Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev 2018 yilni Qozog'istonda O'zbekiston yili deb e'lon qilinishi ham yana bir karra isbotlab berdi.

"Dostiq bar jerde tabis bar", ya'ni, "Do'stlik bor joyda muvaffaqiyat bor".

<sup>16</sup> Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" T. "O'zbekiston"- 2017-yil, 378-bet.

<sup>17</sup> "Xalq so'zi" gazetasi, 2018-yil 22-mart.

## МУНДАРИЖА

| №   | Муаллифлар<br>Ф.И.Ш.                                                                         | Мақола мавзуси                                                                                                  | Бет |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1.  | Баҳромов А.А.<br>Хайриддинов Б.Э.                                                            | Куёш – геотермал сув билан иситиладиган теплицада микро-иклимни бошқаришни автомат-лаштириш                     | 3   |
| 2.  | Эгамбердиева О.Ш.<br>Ташиатов А.К                                                            | Pd-Ba бирикмаси юза эмиссион ҳолати билан юза элементлар миқдори орасидаги боғланиш                             | 7   |
| 3.  | Бозоров Д.Б.<br>Ташиатов А.К.                                                                | Кремний асосида гетеротизим-ларни ион имплантация усулида олиш ва хусусиятларини ўрганиш                        | 11  |
| 4.  | Raximov A.<br>Dilmurodov N.                                                                  | Chiziqli ayirmali o'zgarmas koeffit-siyentli tenglamalar sistemasi va dinamik sistemalar                        | 13  |
| 5.  | Хуррамов О.Ш.<br>Шаронова Г.Ш.<br>Меълиев Х.Ж.                                               | Квадратичный стохастической операторы определенных на малых размерных симплексе                                 | 16  |
| 6.  | Nodirov Sh.D.,<br>Raximova H.O.                                                              | Keli daraxtida aniqlangan model uchun translatsion gibbs o'lovhlari haqida                                      | 19  |
| 7.  | Bozorov M.S.<br>Hamrayev A.Yu.                                                               | Kvazi novolterra kubik operatori-ning qo'zg'almas nuqtalari haqida                                              | 22  |
| 8.  | Қурбонова Н. И<br>Довранов Қ.Т.<br>Саломов У. Э.<br>Қўйлиев Б.Т.                             | Исследование формы полос изотропного комбинационного рассеяния метана                                           | 26  |
| 9.  | Бобомуродова Г.М.,<br>Бахрамова А.А.,<br>Чориев У.Б.<br>Хайриддинов Б.Э.,<br>Холмирзаев Н.С. | Тупроқ ости иссиқлик аккумуля-торли куёш теплицаси тупроқ қатлами иссиқлик ўтказувчанлик коэффициентини аниқлаш | 31  |
| 10. | Бобожонов Ю.Т.,<br>Бобожонова И.Ю.,<br>Каримов Б.С.                                          | Влияние жидкой пленки на потери давления газа в трубопроводах                                                   | 36  |
| 11. | Бобожонов Ю.Т.<br>Бобожонова И.Ю.                                                            | Определение жидких загрязнений в газопроводах                                                                   | 41  |

|     |                                                    |                                                                                                 |     |
|-----|----------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 26. | Омонов О.                                          | Хисор давлат кўрикхонасида тарқалган дарахт ва буталарнинг хўжаликдаги аҳамияти                 | 82  |
| 27. | Боймуродов С.М.,<br>Юсупов Б.                      | Қашқадарё вилояти демографик жараёнларининг худудий хусусиятлари                                | 86  |
| 28. | Nazarov M.G.,<br>Muqimova H.I.,<br>Abdullayev S.I. | Kurs ishlarining turlari                                                                        | 90  |
| 29. | Тошнов Ў. Ж.                                       | Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида учровчи судралувчи хайвонларни гельминтозлардан химоя қилиш | 95  |
| 30. | Тошнов Ў.<br>Ўроқов А.                             | Паррандачилик билан шуғулланиш давр талаб                                                       | 98  |
| 31. | Раунов Б.                                          | Қуёш энергияси ёрдамида сув чиқариш.                                                            | 100 |
| 32. | Suyunova G.                                        | Gepatit B ga qarshi DNK vaktsinalarini ishlab chiqish istiqbollari                              | 103 |
| 33. | Ҳазратова Ҳ.Н.                                     | Конда шакар кўпаймаслигининг муҳим йўли                                                         | 106 |
| 34. | Ҳалимов М. З.                                      | Хужайра шикастланишида эркин радикалларнинг таъсир механизми                                    | 110 |
| 35. | Якубова Ш.<br>Ражабова Н.                          | Буюк ипак йўли тарихи замонавий тадқиқотларда                                                   | 112 |
| 36. | Муминов У.                                         | Чағониён: унинг тарихий – географик худудлари                                                   | 115 |
| 37. | Axmadova N.<br>Hasanov A.                          | Mustaqillik yillarida O'zbekiston-Qozog'iston aloqalari va uning yangi bosqichi                 | 119 |
| 38. | Маматова М.Б.                                      | Роль чая в социально-культурной жизни народов Узбекистана: разновидности узбекского чая         | 124 |
| 39. | Очилова О.<br>Чориев А.                            | Амир Темур боғлари                                                                              | 126 |
| 40. | Baratova N.                                        | Tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik yo'llari.                               | 130 |